

“TASDIQLAYMAN”
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
Korrupsiyaga qarshi kurashish
boshqarmasi boshlig‘i



F.Y. Zulfikarov

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va O‘zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo‘l mintaqaviy tashkiloti hamkorligida “Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish”ga bag‘ishlangan yig‘ilish

BAYONI

№- 2 -sonli

2026-yil “22” iyun

Toshkent sh.

Yig‘ilish raisi: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i F.Y.Zulfikarov

Yig‘ilish qatnashchilari: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari J.A. Yuldashev, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tegishli rahbarlari va mas‘ul xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo‘l mintaqaviy tashkiloti vakillari.

KUN TARTIBI

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ularning samaradorligi yuzasidan

Joriy yilning 22-iyun sanasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Ishlarni boshqarish direksiyasi majlislar zalida Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ularning samaradorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo‘l mintaqaviy tashkiloti bilan hamkorlikda davra suhbatini tashkil qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari J.A. Yuldashev so‘zga chiqib, tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va ularning amaliy natijalari haqida batafsil to‘xtaldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari yig‘ilish ishtirokchilarini korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga, qonun ustuvorligini ta‘minlashda faol ishtirok etishga va har bir xodimni shaxsiy

tartibi, shuningdek murojaatlarning maxfiyligini ta'minlash hamda ularni ta'qibga olinmasligi kafolatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo'l mintaqaviy tashkiloti direktori D.A. Karimova so'zga chiqib, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni muhimligini ta'kidlab, jamoatchilik nazorati, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish bo'yicha takliflarini bildirdi.

Shuningdek, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo'l mintaqaviy tashkiloti bilan hamkorlikda aholi va keng jamoatchilik fikrini o'rganish orqali "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash bo'yicha hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va uning tizim korxona va tashkilotlari xodimlari uchun korrupsion holatlar hamda korrupsiyaga moyilligi bo'lgan bo'linmalarni va yo'nalishlarni tahlil qilish yuzasidan anonim so'rovnoma o'tkazishga kelishib olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari J.A. Yuldashevning ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tizim tashkilotlari rahbarlariga korrupsiyaga oid xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari to'g'risida xodimlar va aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish topshirilsin.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati temir yo'l mintaqaviy tashkiloti bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusidagi seminar, treninglar va davra suhbatlarini muntazam tashkil etish choralari ko'riilsin.
4. Mazkur bayon ijro nazorati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari J.A. Yuldashev zimmasiga yuklatilsin.

Bayon yurituvchi



S.X. Xolboyev